


SHARQ MASH'ALI

A decorative geometric pattern in the bottom-left corner, featuring interlocking star and floral shapes in white, blue, and orange on a dark green background.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

2
2024



Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot
boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:

G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)

Tahrir hay'ati:

D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh
muharrir o'rinbosari)

X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)

A. MANNONOV (prof., f.f.d.)

Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)

R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)

SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)

Q. OMONOV (prof., f.f.d.)

U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)

D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)

X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)

B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)

A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)

M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)

X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)

D.XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha

PhD)

SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)

N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)

A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)

R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)

I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)

R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)

E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)

A. SHONAZAROVA (AQSHning

Kolumbiya univ. prof.)

G. GLIZON (AQSHning New Mexico

univ. prof.)

ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba

univ. prof.)

LI DJI IN (Koreya Respublikasining

Xankuk chet tillar univ. prof.)

V. MESAMED (Isroilning Quddus univ.

prof.)

A. GURER (Turkiyaning Anqara univ.

prof.)

A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar
akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta
ilmiy xodimi)

G. AVDA (Misr Arab Respublikasining
Xelvon univ. prof.)

A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining
"Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi
direktori)

S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)

H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk
univ. prof.)

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 2, 2024-yil

Adabiyotshunoslik

Eshmuhammedova M. Shoir Mushkinning chop etilmay qolgan she'rlari.....	3
Саидова Н. Трансформация реалистического метода повествования в саудовской новеллистике	11
Sulaymonova H. O'zbek va arab adabiyotida epistolyar janrlar tarixining qiyosiy tadqiqi	21
Nazarova A. Afg'oniston qarshilik she'riyati va Partav Nodiriy ijodi	29
Murtazaxodjayeveva M. Pavlayi va Anna Karenina: tutash taqdirlar.....	38
Абдуганиева Н. Проявление ислама в литературе и культуре индонезии.....	46

Tilshunoslik

Sodiqov Q. «Devonu lug'ati-t-turk» matnidagi harakat belgilari va turkiy so'zlarning o'qilishi masalasi	52
Исламджанова Х, Замалеева Э. К проблеме статуса наречия как особой части речи в современном пашто	61
Begmatova B., Shakirova Z. Ism so'z turkumini turlanishiga ta'sir qiluvchi omil turlar (Sayyid Sharif Jurjoniyning "Nahvi Mir" asari misolida)	69
Азимджанова Д., Азизходжаева К. Структурно-семантический - анализ дипломатической лексики современного персидского языка	78
Umarova M. Tarjimashunoslik maktablarida "Milliy kolorit" tushunchasining ilmiy tavsifi ...	85
G'iyosov B. Xitoy ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan ta'lim shiorlarining leksik-semantik tahlili.....	93
Berdiyev U. Madaniy kontseptlar: til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik	106
Ахмедова С. Теоретические основы изучения концепта "любви"	114



Nashrga tayyorlovchilar: J. ISMOILOV, A. ZIYODOV L. HAMDAMZODA, H. SULAYMONOVA Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnal original-maket asosida bosildi. Sharq mash'ali, 2023 yil 1-son. e-mail: nashriyot@tsuos.uz web-site: www.tsuos.uz Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.	<i>Tarix</i>	Худайбердиев А. Идеология движения «Ансару Аллах» 122 Abdullayev U. Amir Temur va Yildirim Boyazid o'rtasidagi muhoraba avvalida Yaqin Sharqdagi xalqaro vaziyat 127 Axmedov S. Temuriylar davri Renessansini o'rganishga mo'ljallangan davr manbalari tahlili. 134 Zokirov B. XIX asr O'rta Osiyo xonliklari toponimik qatlamida turkiy etnonim bilan bog'liq joy nomlari..... 142
	<i>Tashqi siyosat</i>	Турдиева Д. Роль и значение религиозного фактора в социально-политической жизни Малайзии в XX-XXI веке 150 Ahmadxojayev M. Siyosiy lider faoliyatida Saylov oldi imijmeyking usullari 163 Abduraimova Sh. Raqamli asr davrida konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash: islom.uz sayti mediakontentlarida bag'rikenglik masalalari 171 Тилаволдиев А. Платформа «с5+1» как важный инструмент внешнеполитической стратегии США в центральной азии 178
	<i>Intervyu</i>	Mannonov A. Профессор Шарый Жўзжоний . 189





SHOIR MUSHKINNING CHOP ETILMAY QOLGAN SHE'RLARI

ESHMUHAMMEDOVA MARYAM

Dotsent, filologiya fanlari nomzodi, TDSHU

Annotatsiya. Mumtoz adabiyot tarixida ko'plab yozma manbalar tadqiq etilgan. Shu bilan birga hali o'rganilmagan, nomi ilmiy jamoatchilikka, o'quvchilar ommasiga tanish bo'lmagan madaniy meros ham bor. Ular faqatgina O'rta asr ijodkorlari emas, balki ular ichida bugungi kunimizga yaqin tarixda yashaganlar ham bor. Kechagi kun ham biz uchun tarix. Yaqin o'tmishimizda ham savod arab xati asosidagi turkiy yozuvda yoki jadidlar islohidan keyingi imloda chiqarilgan. Shunday ekan, bugungi manbashunos va matnshunos oldida nafaqat O'rta asr manbalari, balki yaqin tariximizga oid manbalarni ham topib, ilmiy jamoatchilikka taqdim qilish vazifasi turibdi.

Ushbu maqolada ma'lumot berilayotgan ijodkor ham bizga juda yaqin yillari yashab o'tgan shoir. Uning yozma merosining faqat bir qismi bizning qo'limizda mavjud. Ana shu she'rlardan ham bilish mumkinki, bu muallif yaxshigina iste'dod egasi, savodi o'tkir, dunyoqarashi keng bir ziyoli shaxs bo'lgan. O'sha davrda balki sharoit taqozosi yoki boshqa sabab bilan gazetalar sotiladigan do'konchada ishlagan. She'rlarining mavzu doirasi turlicha. Xullas, o'z davri madaniy muhiti haqida ma'lumot beradigan she'rlar guldastasidir.

Kalit so'zlar: Mumtoz adabiyot, qalb sadolari, bayt, ravon, nola, qalam tebratmoq, to'plam, matbuot tarqatish, xotirlamoq, yozma meros.

Аннотация. По истории классической литературы изучено множество письменных источников. В то же время существует и культурное наследие которое ещё не изучено и название которого ещё неизвестно научному сообществу и широкой публике. Это не только творческие личности Средней Азии, среди них есть и те, кто жил в истории, близкой к нашему сегодняшнему дню.

Вчерашний день тоже является для нас историей. В нашем недавнем прошлом грамотность была основана на турецкой письменности на основе арабской графики или на основе написания после реформы Джадидов. По этому перед сегодняшним текстологом и источниковедом стоит задача найти не только средневековые источники, но и источники, связанные с нашей новейшей историей, и представить их научному сообществу.

Творческая личность, о котором рассказывается в этой статье, также является поэтом, жившими очень близкие нам годы. Лишь часть его письменного наследия осталось в наших руках. Из этих стихотворений мы также можем узнать, что этот автор был очень талантливым, образованным и интеллектуальным человеком с широким мировоззрением. В то время, возможно, в силу обстоятельств или по какой-то другой причине, он работал в газетном магазинчике. Тематический диапазон его стихов различен. Одним словом, можно сказать, что этот сборник стихов, даёт информацию о культурной среде своей эпохе.

Ключевые слова: классическая литература, звуки сердец, бейт, плач-обращение, творить-создать, сборник, пресс-релиз, поминовение, писменное наследие.

Annotation. Many written sources have been studied in the history of classical literature. At the same time, there is still unexplored cultural heritage, the name of which is unknown to the scientific community and the public of readers. They are not only the creators of the Middle Ages, but among them there are also those who lived in history close to our time.

Yesterday is also history for us. In our recent past, literacy was produced in the Turkish script based on the Arabic script or in the post-reform spelling of the Jadids. Therefore, today's source studies and textual



experts have the task of finding not only the sources of the Middle Ages, but also the sources of our recent history and presenting them to the scientific community.

The artist who is being informed in this article is also a poet who lived very close to us. Only a fraction of his written legacy is in our hands. From these poems, it can be seen that this author was an intelligent person with a good talent, a sharp literacy, and a broad outlook on the world. At that time, perhaps due to circumstances or some other reason, he worked in a newspaper shop. The scope of his poems is different. So, it is a bouquet of poems that gives information about the cultural environment of its time.

Key words: classic literature, soul sounds, verse, fluent, lament, shake pen, collection, distribution of press, remember, written heritage.

Mumtoz adabiyotimiz tarixida nomlari adabiyot olamida mashhur bo'lgan ijodkorlar bilan birga oti mashhur bo'lmagan, hatto ma'lum bo'lmagan ijodkorlar ham talaygina. Buni O'rta asr musulmon Sharqida ijod qilgan ijodkorlar misolida ko'rish mumkin. Shular orasida juda yaqin davrda yashab o'tgan ijodkorlar ham bor. Bolalik yillarimizda oila dasturxonida atrofida yig'ilganimizda otam rahmatli turli ibratli hikoya aytib berar, mumtoz shoirlarimizning she'rlaridan o'qib, sharhlab berardilar. Bir safar bir shoir haqida gapirib: "... O'zi chuqur bilim egasi, lekin nihoyatda xokisor inson. Shunday odam gazetalar sotiladigan do'konchada ishlaydi.", – degandilar. Keyin bu insonning shoir ekanligini, Mushkin taxallusi bilan she'r yozishini aytib, she'rlaridan namunalar o'qib bergandilar.

She'rlar chiroyli arab xatida qiyalama qilib ko'k, yashil va qora siyohli oddiy ruchkada yozilgan. Ayrimlari oq qog'ozga, ayrimlari oddiy daftar varaqlariga bitilgan. Turli mavzuda: Toshkent madhida 3 ta she'r, ota hurmati, ona hurmati, Fuzuliy g'azaliga bog'langan muxammas, non haqida, to'y bilan tabrik, yangi yil qasidasi ... Xullas, kichik bir to'plamga arzigulik she'rlar ekan. Ular bir inson qalbining turli sadolari. Har bir she'r alohida varaqqa yozilgan. Ularning ayrimlariga sana qo'yilgan: 1973-yil, 1969-yil 21-may, 1973-yil iyun, 1974-yil va hokazo. Ko'pining yozilgan sanasi ko'rsatilmagan. She'rlarni o'qib, ularning ayrimi nima munosabat bilan yozilganligini, ayrimini kimga atab yozilganini bilish mumkin. Masalan, "1973-yil 20-iyunda chahorshanba kuni qadrdon do'stim No'mon hoji og'am vafotiga bag'ishlab yozilgan marsiya", "bu she'rni farzandlarimdan umid qilib yozdim", "1972-yil yangi yil qasidasi" va hokazo.

Mazkur she'rlarning barchasi aruzda yozilgan bo'lib, 7, 8, 11, 13 va 15 baytdan tashkil topgan, yuqori saviyada yozilgan.

Sharqda pand-nasihat tarzida asar yozish an'ana sifatida keng tarqalgan.

"Qutadg'u bilig", "Hibatu-l- haqoyiq", Navoiy asarlari va keyingi davrda yaratilgan asarlar bunga misol. Mushkin she'rlari ichida ham shunday, shu ruhda yozilganlarini uchratamiz:

Ey aziz farzand, nechog'liq qadrdoningdur otang,

Shafqatu ham marhamatli mehriboningdur otang.

Loyiqi hurmat, itoat ham azizu mo'tabar,

Qiblagohing, xayrixohing tanda joningdur otang.

Kecha-kunduz tarbiyat aylab kamolingni tilab,

Beg'araz holis duogo'y, posboningdur otang.

Ko'zda nuring, belda quvvat, ham suyanchiq tog' o'lub,

Mavj urib turgan tomirlar ichra qoningdur otang...

Ular ichida ulug' ota madhidagi, unga hurmat bajo aylab yozilgan ko'plab she'rlar bor. Ularning har biri o'zgacha. Lekin yuqoridagi misralar sodda, ravon, ayni damda o'xshatishlarga boyligi bilan ajralib turadi. Qalbingiz tubida turganu, hali aytib ulgurmagan nolangizga o'xshaydi, she'rning davomiga e'tibor qaratamiz:



Qil tafakkur, yaxshi o'ylab ko'kdagi yulduz esang,

Bag'rina olgan sharaflı osmoningdur otang.

Ta'na-yu dashnomlardan uzoq, samimiy, she'rni butun vujudi bilan his qilgan holda sevib ardoqlashga o'rgatadi kishini.

Shoir she'rlarini o'qishda davom etar ekanmiz, keksalik haqida yozgan misralari e'tiboringizni tortadi. Bu mavzuda ajdodlarimizning baytlari, ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning quyidagi misralari beixtiyor yodga keladi:

Agar to'lsa oltmishga kimning yoshi

Halovat yo'qolgay, qish bo'lgay yozi.

Yoki Navoiyda:

Ne qish nishoti manga qoldi, ne xazon, ne bahor,

Bahorima chu xazon qo'ydi yuz, xazonima qish.

Keksalik har qanday novdani quritib o'tinga aylantirishi, manaman degan chavandozu pahlavonlarning ham bu faslda quvvati ortga qaytib, qilichi yoki otiga emas, endi asoga suyanishi sir emas. Ana shu damlarni Mushkin quyidagicha ifodalaydi:

Yoshing oltmishga yetsa, otga bir sakrab minolmaysan,

Agar yetmishga kirsang beetov yo'lda yurolmaysan.

Bo'lib umring uzun, saksonda bo'lsa moh ila soling,

Ko'tarib qo'ltig'ingdan qo'ymasa mutloq turolmaysan.

Bunday hol yosh ulg'aygani sari ortib boraverarkan, bir paytlar u yurtidan bu yurtga otda javlon urib uchib yurgan chavandozga endi qo'shni hovliga chiqish ham malol kelarkan:

Uyingdan qo'zg'alib bir hovliga chiqsang banogohi,

Yana qaytib kelishda buklanib, uyga yetolmaysan...

Harchand keksalikdan shikoyat qilinsa ham, lekin o'sha ulug' yoshga yetganlar bor, yetmaganlar bor.

She'riyat – go'zallik, she'riyat – qalb armoni, she'riyat – taskin.

She'riyat olam va odamzot mushkilotlarining yechimi. She'riyat – bu nido:

Man o'lsam ey farzandlarim, yig'lab sado qilmang,

Tunu kun yosh to'kib, ham sabru toqatni ado qilmang.

Baland ovoz ila har saharlar nolalar tortib,

O'zingiz "ko'k" kiyib, bel bog'labon motamsaro qilmang.

Biz bunday vasiyatni mumtoz adabiyotimiz vakillaridan ko'pining ijodida uchratamiz. Jumladan, Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor va boshqalarda.

Demak, ustozlar an'anasiga sodiqlik, ularga ergashish har bir shoirning shiori ekan. Ana shu holatni Mushkin ijodida ham ko'ramiz. Ayniqsa, uning o'z davrining farzandi sifatida yashab turgan tuzumi bilan kelishishi, churq etib nolimaslikni o'zining burchi deb hisoblashi kishini hayratga soladi:

Sovet qonunida, shar'i sharifda, dinda yo'q ishni

Qilib isroflar joningiza javru jafo qilmang.

Biling avlodimu do'stim, bu Mushkin istilosi shul,

Musibat kunlarida dod etib ko'p mojaro qilmang.



Mashhur bir jumla bor: "Muhabbat asli eski mavzu, har bir shoir uni yangi libos bilan bezantiradi". Turkiyzabon biror shoir yo'qki, u Fuzuliy dahosi oldida hayratlanmagan, unga ergashib qalam tebratmagan bo'lsin.

Shoir Mushkinning ham Fuzuliy she'riga yozgan muxammasi bor:

Mening majnunlig'im sirri biyobon ettigimdandur,
Ko'zlari giryonlig'i ko'nglumni giryon ettigimdandur.
Netay hayratda qolmoq, elni hayron ettigimdandur,
Parishon xalqi olam ohi afg'on ettigimdandur,
Parishon o'ldug'um xalqi parishon ettigimdandur.

Jami yetti banddan iborat, bu she'rda muhabbat va hayot kuychisi bo'lgan shoirning qalb nolalari ifodalangan. Hijrondagi oshiq ko'z yoshlarining lolagun bo'lishi, muhabbat shevasida sarnigun bo'lishi, go'zallik qarshisida o'zni bilmay, ishq tufayli to'kkan ko'z yoshlari, bag'ir qonining pargola-pargola bo'lgani. Bu bir oshiqning ma'shuqa mahbasidagi iztiroblaridir. Va buning oqibati esa oshiq uchun go'shanishinlik, xilvatdir. Ishqning o'ziga xos odobi, rasm-rusumi bor. Agar oshiq ana shu odoblarga to'liq amal qilganida, o'zligini anglay olganida, bu yo'lda boshga keladigan balolarni bilganida, o'z ahvolini sir tuta olganida edi, bu ko'rguliklar yo'q edi. Ammo bunday bo'lmadi, bo'lolmadi. Chunki ishq bu junundir. Majnun bo'lgan kishidan buni kutish esa imkondan tashqari holdir:

Bajarmoq birla ishq odob rasmin yaxshi qilsaydim,
O'zimni kimligimni o'ylab avval o'zga kelsaydim.
Halokatlarga dushmazdim, bu yo'ldin bir chekinsaydim,
Qachon rasvo o'lurdim, qon yutib sabr eta bilsaydim,
Malomat chekdigim behuda afg'on etdigimdandur.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bu to'plam she'rlarining mavzu doirasi keng. Keling, yaxshisi ulardan ayrimlarini to'liq holda sizning hukmingizga havola qilamiz. O'qib bahramand bo'ling.

Muallif haqida, boshqa she'rlarining taqdiri haqida hozircha biror ma'lumotga ega emasmiz. Bolalikdagi xotiralarimdan ma'lum bo'lgani, eshitganim: bu kishi sobiq Ittifoq davrida yashagan, o'z davrining ziyolilaridan bo'lgan. She'rlari, imlo va inshosi madrasa ko'rgan ziyolilardan degan fikrga kelish imkonini beradi. Balki mustabid tuzumining turli tazyiqlaridan qochib yoki umrining keyingi yillarini matbuot tarqatish bilan o'tkazgandir. Mushkinning na tug'ilgan yili va na vafoti sanasi ma'lum. Farzandlariga yozgan vasiyatnomasida 1974 yil ko'rsatilgan. Har holda vasiyatnoma yozilgandan keyin u kishi uzoq yashamagan. Chunki, odatda vasiyatnoma ma'lum yoshni qoralagandan so'ng yoziladi. Yana she'rlar (bizning qo'limizdagi – **M.Eshmuhamedova**) yozilgan paytda u kishining yoshi kichik bo'lmagan. Afsuski, aniq ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan vaqtda biz bu bilan qiziqmaganmiz. Bu ishga qo'l urganimizda esa, bunday imkoniyatimiz yo'q edi. Sa'diy yozadi:

Tishlarim borida go'sht topolmadim,
Go'sht topganimda esa tishlarim yo'q edi.

Umid shuki, bu hali xamir uchidan patir tarzida e'lon qilinayotgan she'rlardan muallif avlodlari xabar topishar. Balki uning qo'lida ajdodlari yozma merosining to'liq varianti saqlanib qolgandir.

Ikkinchi tomondan shunday mulohaza ham yo'q emaski, balki shoir she'rlarining qaysidir qismi chop etilgandir... Nima bo'lganda ham bir ijodkor yozma merosidan bugungi avlodni xabardor qilish, qolaversa, yillar qa'riga singib ketgan bir insonni xotirlash xayrli ishlardandir.

Ulug' ota hurmatlari



Ey aziz farzand, nechog'liq qadrdoningdur otang,
Shafqatu ham marhamatli mehriboningdur otang.
Loyiqi hurmat, itoat ham azizu mo'tabar,
Qiblagohing, xayrixohing tanda joningdur otang.
Kecha-kunduz tarbiyat aylab kamolingni tilab,
Beg'araz xolis duogo'y posboningdur otang.
Ko'zda nuring, belda quvvat, ham suyanchiq, tog' o'lub,
Mavj urib turgan tomirlar ichra qoningdur otang.
Qil tafakkur, yaxshi o'ylab ko'kdagi yulduz esang,
Bag'riga olgan sharaflari osmoningdur otang.
Yaxshi niyat birla tun-kun fikru zikringda bo'lib,
Qalbida mehring, turarga bir makoningdur otang.
O'ylagil Mushkin, chuqur har bir muammolarga ham,
Maslahat bergay hamisha nuktadoningdur otang.

Aziz ona hurmatlari

Yosh yigit, qiz g'unchasan, keng bag'ri gulzoring onang,
Boz mehringda damodam bulbuli zoring onang.
Baxti iqboli saodatni tilab har bir nafas,
Kecha-kunduz iltijo qilgan talabgoring onang.
Tunu saharlar uxlamay, bir-bir tutib ko'krak sutin,
Ko'zni yummay to'lg'anib, har lahza bedoring onang.
Har mahalda o'ynatib boshu oyog'ingni silab,
Quvnatar erdi dilingni turfa dildoring onang.
Voliding voyangga yetkurmoqda ko'rding qiynalib,
Xilma-xil tashvish tortib bo'ldi afgoring onang.
Yuz o'gurmas mutlaqo, qilsang mabodo javrlar,
Naqd jon birla hamisha chin xaridoring onang.
Dahr aro Mushkin, qadrdoning otang bo'lsa agar,
Bil haqiqatda ajoyib mehri bisyoring onang.

Ba'd az vafotim aziz farzandlarimga she'r birlan vasiyatnoma

Man o'lsam, ey aziz farzandlarim, yig'lab sado qilmang
Tunu kun yosh to'kib, ham sabru toqatni ado qilmang.
Baland ovoz ila har saharlar nolalar tortib,
O'zingiz "ko'k" kiyib, bel bog'labon motamsaro qilmang.
Xadim bed mon qo'yub har haftada payshanba, yakshanba,
Qarindosh, yoru do'stlarni kelinglar deb nido qilmang.
"Yigirma", "yetti", "qirq", "laylak kelib", "qor yog'di" rasmini,
Qovun "tarvuz", bilan ham "gul", "uzum"ni mutlaqo qilmang.
Boshingiz aylanib, ko'zlar bitib yo'ldan adashmasdan,
Xurofot, eski odatlarga o'zni muhtalo qilmang.
O'rinsiz, asli yo'q, noto'g'ri bu behuda ishlardan,
Savob bo'lgaymukin deb e'tiqod aylab rajo qilmang.
Iloji bo'lganicha erta-kech sabri jamil aylab,



Bosib o'zni, ochib ko'zni chidab ohu voh qilmang.
Xurofot ish agar har joyda bo'lsa qayrilib boqib,
Elu xalq o'rtasida o'zlaringiz noraso qilmang.
To'liq ixlos ila taqdir uzra tan beribsizlar,
Chekib yuz ohu afg'on nolalar shomu sabo qilmang.
Sovet qonunida, shar'i sharifda, dinda yo'q ishni,
Qilib isroflar joningiza javru jafo qilmang.
Biling avlodimu do'stim, bu Mushkin iltimosi shul,
Musibat kunlarida dod etib ko'p mojaro qilmang.

**Muhtaram Muhammad Ya'qub Vohidiy domla birodarimizga taqdim etildi az tarafi
Mushkin. 1974-yil, 1-iyunda**

Toshkent madhi

Ajoyib xush havoyu mevasi shirin shakar Toshkent,
Muqaddas ko'hna shahru poytaxtu mo'tabar Toshkent.
Yomon dahshatli bo'ldi zilzila, ko'p joy xarob bo'ldi,
Qurildi qaytadan, bo'lmoqda yangi sarbasar Toshkent.
Muhandis injenerlar keldilar yordamchi har yerdan,
Qurishdi yangi tipda, bo'ldi bexavfu xatar Toshkent.
Muzayyan, muhtasham, xushbahra bir shahri azim bo'ldi,
Yorug'dir kecha-kunduz, boshida shamsu qamar Toshkent.
Musofirparvaru mehmonnavozu bag'rikeng xalqi,
Ochiq darvozasi do'stlar uchun shomu sahar Toshkent.
Zakovatli, talabchan olimu dehqonu bog'bondir,
Har ishga mohiru mehnatkashu ahli hunar Toshkent.
Badavlat, oliyhimmat, ittifoq ozodayu dilkash,
Bu oliy sheva birla bo'ldi manzuri nazar Toshkent.
Bahodirlar bilan bo'ldi oq oltin koni sahrosi,
Tamom o'lmaydi Mushkin, madh etib yozsam agar Toshkent.

Muxammasi Mushkin bar g'azali Mavlono Fuzuliy.

Mening majnunlig'im sirri biyobon etdigimdandur,
Ko'zum giryonlig'i ko'nglumni giryon etdigimdandur.
Netay hayratda qolmoq, elni hayron etdigimdandur,
Parishon xalqi olam ohi afg'on etdigimdandur
Parishon o'ldug'um xalqi parishon etdigimdandur.
Muhabbat shevasida lozim o'ldi sarnigun o'lmoq,
Muqarrar bo'ldi menga Layli hajrida junun o'lmoq,
To'kulgan yoshlarim har lahza ko'zdan lolagun qilmoq,
Dili zorimda dardi ishq kun-kundan fuzun o'lmoq,
Tani bedarda tadbir ila darmon etdigimdandur.

Jamoliga boqib bo'ldugum o'zumni bilmayin vola,
To'kulgay ishtiyoqida ko'zumdan to'xtamay jola,
Saharlar to'lg'anib beixtiyor o'ldi ishim nola,



Ko‘zumkim, bag‘riming qonin do‘kar pargola-pargola.
Damodam orzuyi la’li xondan etdigimdandir.

Kulub oshufta qildi bir nafasda ila yoshlar,
Netarman sabru bardoshimni oldi ul qalamqoshlar,
O‘zumni to‘xtata olmay telba ko‘nglim har taraf boshlar,
Dugal behuda gar yoqsa falakdan boshima doshlar,
Binosin dishai oqimla vayron etdigimdandur.

Bajarmoq birla ishq odob rasmin yaxshi qilsaydim,
O‘zumni kimligimni o‘ylab avval o‘zga kelsaydim,
Halokatlarga dushmazdim bu yo‘ldan bir chekilsaydim,
Qachon rasvo o‘lurdim, qon yutib sabr eda bilsaydim,
Malomat chekdigim behuda afg‘on etdigimdandur.

Ajab Mushkin ekan dunyoda maqbuli habib o‘lmoq,
Platon ham bo‘lolmas ishq dardiga tabib o‘lmoq,
Iloji bo‘lmadi umrumda maqsadga qarib o‘lmoq,
Xatosindin dugal jismim o‘zingdan benasib o‘lmoq,
Hubobi ashki gulgun ichra pinhon etdigimdandur.

Jahonga keldimu dardu alamlar bo‘ldi hamroxim,
Damodam ko‘k sari chirmashdi qilgan nolayu ahdim,
Bu holat birla Mushkin axtarurman qayda deb mohim,
Fuzuliy ixtiloti mardumi olamda ikrohim,
Parivashlar hayolin munisi jon etdigimdandur.

Qarilik borasida

Yoshing oltmishga yetsa, otga bir sakrab minolmaysan,
Agar yetmishga kirsang beetov yo‘lda yurolmaysan.
Bo‘lib umring uzun, saksonda bo‘lsa moh ila soling,
Ko‘tarib qo‘ltig‘ingdan qo‘ymasa mutloq turolmaysan.
Chunonchi xo‘p tabarruk bo‘lsa ham bu keksalikdan dod,
Agar to‘qsonga to‘lsang ravshan o‘z yoshing bilolmaysan.
Nechuk qilmay shikoyat bu qarilik dastidan do‘stlar,
O‘zing birlan qo‘shulgan yordan bahra ololmaysan.
Mabodo qilsalar ahhoblar taklifi mehmonga,
O‘zingni o‘nglabon suhbatda charchab o‘ltirolmaysan.
Belanglab yurganingda yo‘llaringda uchrasa ko‘zga,
Barobar jonivormu yoki jonsiz ajratolmaysan.
Taqozoyi ko‘ngil har ishni qilsam deb qilur javlon,
O‘zing ojiz bo‘lib mo‘ljallagan ishni qilolmaysan.
Yo‘lingda ko‘cha-ko‘yda kichkina ensiz arig‘ kelsa,
Oyog‘ingni ko‘tarib tashlabon hatlab o‘tolmaysan.
Uyingdan qo‘zg‘alib bir hovliga chiqsang banogohi,



Yana qaytib kelishda buklanib, uyga yetolmaysan
Qadrdonlarni ko'rmoqqa bo'lur ko'ngul tamannosi,
Borib kelmoqqa holat yetmayin yo'qlab borolmaysan.
Qarindosh, tanishlar ko'cha-ko'yda uchrashib qolsa,
Tanib olmay alarni hol-ahvolin so'rolmaysan.
Icharda choyni ko'p har doymu hushyor o'lib ichg'il,
Javobi loyiq o'lsa bir nafas o'zni tutolmaysan.
Yozilmoqlikni qasdida kechalar tashqari chiqsang,
Kelib qaytib muqarrar yotgan uyingni topolmaysan.
Qarilik dardi birlan dam-badam a'zolarining og'rib,
Hamisha har tarafga to'lg'anib, ingrab yotolmaysan.
Qarilik sirrini to topmaguncha ahli dardingni,
Bayoni hasratingni birma-bir Mushkin, etolmaysan.

Navro'zi olam haqida

Do'stlar, bu hur diyorimni bahorini ko'ring,
Turfa xushbo'yi nasimi beg'uborini ko'ring.
Yor bisotidan chiqibdur yer yuziga sabzalar,
Xilma-xil gullar, chechaklar, lolazorini ko'ring.
Bog'-bo'stonlarda yashnab, mavj urib har bir daraxt,
Gullagan hay-hay ajoyib olma, anorini ko'ring.
Sayr etib har bir gulistonni tamosho qilgali,
Yor-do'stlar o'rtasida qilgan qarorini ko'ring.
Keksalarga ko'rsatib axloq-odob shyevasin,
Bo'lgay iqboli baland yoshlar shiorini ko'ring.
Bu muborak kunda har bir ota birlan onaga
Mehribon farzandlarini shafqat nisorini ko'ring.
Bo'ldilar olqish sazovori, samimiy kutdilar,
Xalqimizni yangi kunga e'tiborini ko'ring.
Madh etib Mushkin, nechog'liq so'zlar ersam shuncha oz,
Bu bahor ayyomini laylu bahorini ko'ring.

Biz ana shunday nomlari adabiyot olamiga ma'lum va mashhur bo'lmagan ijodkorlar ning asarlarini adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida izlanishlar olib borib o'rganishimiz va ilmiy jamoatchilikka taqdim etishimiz lozim. Bugungi ziyolilarimiz oldida turgan dolzarb vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Mumtoz adabiyotimiz vakillaridan nomlari adabiyot olamida ma'lum va mashhur bo'lmagan ijodkorlarning (bunga Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari ijodi misol bo'la oladi) asarlarini qo'lyozmalardan qidirib topib, ularni mashhur qilish kerak.

2. Bunday ijodkorlarning asarlari o'rin olgan qo'lyozmalar katalogini tuzish lozim. Shundagina ularning ijodiga ilmiy yondosha olamiz.

3. Bu ijodkorlarning tadqiq etilgan qo'lyozmalarini qiyoslab o'rganib, undan keyingina devonlarini nashrga tayyorlab ommaga yetkazish mumkin.

Bizga yaqin davrda yashab o'tgan ijodkorlar ham bor. Ularning avlodlari bilan aloqa o'rnatib, ijod namunalari bo'ladimi, arxiv materiallari bo'ladimi, o'rganib ommalashtirish lozim.



Shundagina biz avlodlar ajdodlar merosining munosib vorislari bo'la olamiz. Va ularning o'z umrlarini bag'ishlab yozgan asarlari – u devonmi, bitta she'rmi asrlar qa'riga singib yo'qolib ketmaydi. O'z o'quvchilariga qaytargan bo'lamiz.

Yuqoridagi izlanish ana shu yo'ldagi bir qadamdir.



ТРАНСФОРМАЦИЯ РЕАЛИСТИЧЕСКОГО МЕТОДА ПОВЕСТВОВАНИЯ В САУДОВСКОЙ НОВЕЛЛИСТИКЕ

САИДОВА НАРГИЗА

Доктор философских наук (PhD), в. б. доцент, ТГУВ

Аннотация. В данной статье рассматривается творчество таких известных саудовских новеллистов, как: Мансура аль-Хазими, Мухаммеда Ульвана, Хусейна Али Хусейна. Путём анализа произведений данных писателей показаны традиции, а также новые тенденции, развивавшиеся на современном этапе.

Ключевые слова: новеллистический жанр, этап «модернизации», экспериментальное письмо, арабо-израильская война, отчуждённые, консервативное направление, новая волна, художественные методы.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Saudiya Arabistonining Mansur Al-Xazimi, Muhammad Ulvan, Huseyn Ali Huseyn kabi mashhur novellistlarining ijodi ko'rib chiqiladi. Ushbu yozuvchilarning asarlarini tahlil qilish orqali an'analar, shuningdek, hozirgi bosqichda rivojlangan yangi tendentsiyalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: romanistik janr, "modernizatsiya" bosqichi, eksperimental yozuv, Arab-Isroil urushi, begonalashtirilgan, konservativ yo'nalish, yangi to'lqin, badiiy metodlar.

Abstract. This article examines the work of such famous Saudi novelists as: Mansour al-Hazimi, Mohammed Ulwan, Hussein Ali Hussein. By analyzing the works of these writers, traditions are shown, as well as new trends that have developed at the present stage.

Key words: novelistic genre, stage of "modernization, experimental writing, Arab-Israeli war, alienated, conservative direction, new wave, artistic methods

Введение. В течение последних десятилетий XX века новеллистический жанр в саудовской литературе претерпел значительные изменения, которые позволили многим исследователям провозгласить этап «модернизации», или, по-другому, «экспериментального письма»¹ в его развитии.

Цель и задачи. На основе творчества саудовских писателей и анализа произведений показать традиции и развитие новых тенденции на современном этапе.

Результаты и размышления. Литературное движение в саудовской литературе возглавили новые творческие силы, названные Мансуром ал-Хазими «منبوذ» «отчужденными»². Социальная проблематика в их произведениях отступила на второй план, рассматривая,

¹ الدكتور معجب بن سعيد الزهراني. تحولات الكتابة القصصية ومظاهر تطورها. موسوعة الأدب العربي السعودي الحديث. نصوص مختارة ودراسات. المجلد الرابع. القصة القصيرة. ص. 19

² منصور الحازمي. فن القصة القصيرة في الأدب السعودي الحديث. ص 95